

# BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2023- yil yanvar-noyabr  
oyi uchun dastlabki  
ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2023-yilning yanvar-noyabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 066,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilga nisbatan **17,2** mln. AQSh dollariga yoki **1,6** foizga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

	2022 - yil	2023 - yil	O'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan, foizda
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>1 083,8</b>	<b>1 066,6</b>	<b>98,4</b>	<b>x</b>
<b>Eksport</b>	<b>274,7</b>	<b>268,7</b>	<b>97,8</b>	<b>100,0</b>
tovarlar	262,9	249,7	95,0	92,9
xizmatlar	11,8	19,0	161,0	7,1
<b>Import</b>	<b>809,1</b>	<b>797,9</b>	<b>98,6</b>	<b>100,0</b>
tovarlar	<b>809,1</b>	<b>797,9</b>	<b>98,6</b>	<b>100,0</b>
xizmatlar	-	-	-	-
<b>saldo</b>	<b>-534,4</b>	<b>-529,2</b>	<b>x</b>	<b>x</b>



*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi **6,0** mln. AQSh dollariga (**2,2** foizga) va import hajmi esa **11,1** mln. AQSh dollariga (**1,4** foizga) kamaydi. Hisobot davrida – **529,2** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## BUXORO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Rossiya  
Federatsiyasi  
TSA – 382,0  
Eksport – 81,0  
Import – 301,0



Xitoy  
TSA – 215,4  
Eksport – 15,5  
Import – 199,9



Turkmaniston  
TSA – 82,8  
Eksport – 10,3  
Import – 72,5



Turkiya  
TSA – 67,1  
Eksport – 18,7  
Import – 48,4



Oozog'iston  
TSA – 61,3  
Eksport – 16,6  
Import – 44,7



Afg'oniston  
TSA – 46,1  
Eksport – 50,6  
Import – 0,3



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qирг'изистон, Тоҷикистон va Eron bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoxda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## 20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA BESHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-noyabr)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 5 ta davlatda faol tashqi savdo balansi Afg'oniston (**50,3 mln. AQSh dollar**), Tojikiston (**18,2 mln. AQSh dollar**), Qирг'изистон (**7,4 mln. AQSh dollar**), Ozarbayjon (**2,8 mln. AQSh dollar**), Ukraina (**2,4 mln. AQSh dollar**) 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Buxoro jahoning **69** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federesiyasi (**35**, foiz) Xitoy (**20,2** foiz), Turkmaniston (**7,8** foiz) va Turkiyada (**6,3** foiz) qayd etilgan.



# BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Rossiya Federesiysi	185,0	268,5	381,9
Eksport	51,8	67,7	81,0
Import	133,2	200,7	301,0
Xitoy	102,4	142,4	215,4
Eksport	34,1	12,7	15,5
Import	68,3	129,7	199,9
Turkmaniston	133,0	205,4	82,8
Eksport	5,7	8,0	10,3
Import	127,3	197,4	72,5
Turkiya	104,2	89,1	67,1
Eksport	28,3	24,3	18,7
Import	75,9	64,8	48,4
Qozog'iston	35,4	101,4	61,3
Eksport	7,0	23,3	16,6
Import	28,4	78,1	44,7
Afg'oniston	13,8	58,2	51,0
Eksport	13,2	57,9	50,7
Import	0,6	0,3	0,3
Eron	125,4	47,1	36,8
Eksport	98,7	13,3	4,6
Import	26,7	33,8	32,2
Germaniya	50,7	25,5	28,2
Eksport	1,5	2,6	6,8
Import	49,2	22,8	21,4
Tojikiston	11,8	12,5	22,6
Eksport	7,1	8,1	20,4
Import	4,7	4,4	2,2
Qirg'iziston	5,8	25,9	14,5
Eksport	4,9	23,2	11,0
Import	0,9	2,7	3,5



## BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollar'i)



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Litva</b>	<b>6,0</b>	<b>11,7</b>	<b>13,6</b>
<i>Eksport</i>	3,2	1,7	0,4
<i>Import</i>	2,8	10,0	13,2
<b>Hindiston</b>	<b>3,2</b>	<b>3,9</b>	<b>11,9</b>
<i>Eksport</i>	0,4	0,6	7,1
<i>Import</i>	2,8	3,3	4,7
<b>Polsha</b>	<b>6,1</b>	<b>8,8</b>	<b>10,5</b>
<i>Eksport</i>	4,0	3,1	4,6
<i>Import</i>	2,1	5,7	5,9
<b>Belorussiya</b>	<b>4,5</b>	<b>7,1</b>	<b>9,1</b>
<i>Eksport</i>	0,5	0,7	0,2
<i>Import</i>	3,9	6,4	8,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>14,1</b>	<b>5,3</b>	<b>7,3</b>
<i>Eksport</i>	0,5	0,5	0,2
<i>Import</i>	13,6	4,8	7,1
<b>B.A.A</b>	<b>1,7</b>	<b>2,1</b>	<b>5,1</b>
<i>Eksport</i>	1,3	1,6	2,2
<i>Import</i>	0,4	0,5	2,9
<b>Nederlandiya</b>	<b>1,4</b>	<b>8,1</b>	<b>5,0</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
<i>Import</i>	1,4	8,1	4,9
<b>Estoniya</b>	<b>3,0</b>	<b>3,6</b>	<b>4,8</b>
<i>Eksport</i>	2,8	3,4	1,6
<i>Import</i>	0,2	0,2	3,2
<b>Azarbajyon</b>	<b>5,2</b>	<b>4,8</b>	<b>4,6</b>
<i>Eksport</i>	1,0	2,3	3,7
<i>Import</i>	4,2	2,5	0,9
<b>Ukraina</b>	<b>7,8</b>	<b>6,5</b>	<b>3,7</b>
<i>Eksport</i>	2,0	4,6	3,1
<i>Import</i>	5,8	1,9	0,6

## VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr, 2023-yil)



	Mln. AQSh dollarri	O'sish sur'ati, foizda
<b>Viloyat</b>	<b>1 066,6</b>	<b>98,4</b>
<i>hududlar:</i>		
Olot	11,4	214,7
Buxoro	37,7	49,2
Vobkent	31,3	99,0
G'ijduvon	63,6	89,9
Kogon	92,7	90,0
Qorako'l	30,2	61,2
Qorovulbozor	375,3	95,3
Peshku	63,9	120,3
Romitan	32,4	85,4
Jondor	43,9	177,1
Shofirkon	15,1	74,6
Buxoro sh.	230,0	122,8
Kogon sh.	37,5	136,0
Aniqlanmagan tashkilotlar	1,6	71,1

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Qorovulbozor – 375,3**

**Buxoro sh. – 230,0**

**Kogon – 92,7**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Qorako'l - 30,2**

**Shofirkon – 15,1**

**Olot – 11,4**




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi bo'yicha eng yuqori ulushni Qorovulbozor **35,2** foiz ulush bilan **375,3** mln. AQSh dollarni, eng quyi ulushni Olot tumani **1,1** foiz bilan **11,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatning tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaralsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **54,5** foizni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022 - yilga nisbatan **92,0** foizni tashkil etdi.

## VILOYATNING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKLATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, foizda)



Boshqa xorijiy davlatlarining TSA si 2023- yilning yanvar-noyabr oyida 2022-yilga nisbatan o'zgarish sur'ati **107,4** foizni tashkil etib, jami TSA dagi ulushi **45,5** foizni ko'rsatdi.



## BUXORO VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollar)



### Rossiya Federatsiyasi

TSA – 381,9  
Eksport – 80,9  
Import – 301,0



### Turkmaniston

TSA – 82,8  
Eksport – 10,3  
Import – 72,5



### Qozog'iston

TSA – 61,3  
Eksport – 16,6  
Import – 44,7



### Tojikiston

TSA – 22,6  
Eksport – 20,4  
Import – 2,2



### Qira'iziston

TSA – 14,5  
Eksport – 11,0  
Import – 3,6



### Belorussiya

TSA – 9,1  
Eksport – 0,2  
Import – 8,9



### Azrbayzion

TSA – 4,6  
Eksport – 3,7  
Import – 0,9



### Ukraina

TSA – 3,7  
Eksport – 3,1  
Import – 0,6



1992 - yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr holatiga **581,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **146,6** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **435,3** mln. AQSh dollarini qiyomatida qayd etildi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**381,9** mln. AQSh dollar), Turkmaniston (**82,8** mln. AQSh dollar) va Qozog'iston (**61,3** mln. AQSh dollar) davlatlari bilan qayd etildi.




## BUXORO VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)

EXPORT

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida mamlakatning eksportyori soni **253** tani tashkil etib, ular tomonidan **268,7** mln. AQSh dollar (2022- yilning mos davriga nisbatan **97,8** foizni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, foizda)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **92,9** foizni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari **47,2** foizni, Mineral yoqilg'i yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar **22,0** foizni tashkil qildi



## BUXORO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI ( yanvar-noyabr oylari)



XSST tarkibi	Min. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2022	2023	2021	2022	2022	2023
Jami eksport	274,7	268,7	95,4	97,8	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35,4	20,4	131,9	57,6	12,9	7,6
Ichimliklar va tamaki	2,3	3,1	134,5	-	0,8	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22,0	11,1	17,9	50,2	8,0	4,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	62,2	59,0	3,2 m.	94,9	22,6	22,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	0,1	-	-	0,4	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,4	7,6	4,4 m.	90,1	3,0	2,8
Sanoat tovarlari	123,3	126,8	130,8	102,8	44,9	47,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,0	6,3	5,1	355,6 m.	-	2,4
Turli xil tayyor buyumlar	8,3	15,3	3,0 m.	185,0	3,1	5,7
Xizmatlar	11,8	19,0	66,7	161,1	4,3	7,1

## BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2022	2023	2021	2022	2022	2023
Rossiya Federasiyasi	67,7	81,0	127,5	119,6	1	1
Afg'oniston	47,6	50,7	4,5 m.	96,2	6	2
Tojikiston	8,1	20,4	119,4	2,5 m.	10	3
Turkiya	21,2	18,7	86,9	85,4	5	4
Qozog'iston	23,3	16,6	3,4 m.	71,2	4	5
Xitoy	12,5	15,5	39,2	109,6	3	6
Qirg'iziston	23,2	11,0	5,0 m.	63,2	8	7
Turkmaniston	8,0	10,3	137,7	128,8	2	8
Hindiston	0,6	7,1	150,0	10,5 m.	21	9
Germaniya	2,4	6,8	184,6	2,5 m.	9	10
Polsha	2,7	4,6	73,0	163,0	12	11
Eron	13,0	4,6	-	30,8	7	12
Azerbayjon	2,3	3,7	2,3 m.	160,9	19	13
Ukraina	4,6	3,1	2,4 m.	67,4	16	14
Vietnam	2,3	2,6	143,8	113,0	15	15
Pokiston	3,1	2,5	2,2 m.	80,6	17	16
B.A.A.	1,5	2,2	150,0	146,7	27	17
Estoniya	3,4	1,6	125,9	47,1	23	18
Bangladesh	-	0,8	-	-	-	19
Buyuk Britaniya	0,1	0,6	33,3	6,0 m.	39	20



## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)



Viloyat	Mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, foizda
<i>hududlar:</i>		
Olot	7,5	2,4 m.
Buxoro	5,3	59,3
Vobkent	16,8	117,4
G'ijduvon	28,1	84,3
Kogon	24,1	82,7
Qorako'l	17,9	64,1
Qorovulbozor	60,3	107,5
Peshku	6,2	87,1
Romitan	17,1	98,2
Jondor	2,4	51,2
Shofirkon	8,2	156,5
Buxoro sh.	65,8	112,8
Kogon sh.	7,4	101,5
Aniqlanmagan tashkilotlar	1,6	84,2

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollarari

**Buxoro sh.– 65,8**

**Qorovulbozor – 60,3**

**G'ijduvon – 28,0**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollarari

**Peshku – 6,2**

**Buxoro – 5,3**

**Jondor– 2,4**

Viloyatda eksport tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **24,5** foiz ulush bilan **65,8** mln. AQSh dollararni tashkil etdi.

Viloyat eksport tarkibida eng quyi ulushni Jondor tumani **0,9** foiz bilan **2,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORT



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **14,8** mln. AQSh dollari qiymatli **43,7** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2022-yilning mos davriga nisbatan **13,3** mln. AQSh dollarida kamayish kuzatilib, **52,8** foizga kamaydi. Sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **10,3** mln. AQSh dollariga teng **35,7** ming tonna sabzavot, shuningdek, **4,5** mln. AQSh dollari qiymatidagi **8,0** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	ming tonna	Mln. AQSH dollarari	ulushi, foizda *
Qozog'iston	34,3	7,5	50,7
Rossiya Federatsiyasi	6,2	3,7	25,0
Boshqa davlatlar	3,2	3,6	24,3

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozoqistonga to'g'ri keladi. Bu meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **50,7** foizini tashkil qiladi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, foizda)




Transport xizmatlari 14,8 %




Boshqa xizmatlar 10,9 %

Safarlar (turizm) 58,9 %



Moliyaviy xizmatlar 15,4 %



Xizmatlar eksporti hajmi **19,0** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **7,1** foizini tashkil etib, 2022- yilga nisbatan **61,0** foizga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**58,9** foiz), moliyaviy xizmatlar (**15,4** foiz) va transport xizmatlari (**14,8** foiz) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga boshqa xizmatlar **10,9** foizni tashkil etgan.




## BUXORO VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)



2023- yil yanvar-noyabr oyida import hajmi **797,9** mln. AQSh dollarini va 2022- yilga nisbatan **98,6** foizni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**42,3** foiz), Mashinalar va transport asbob-uskunalar (**31,6** foiz) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yil yanvar-noyabrdada import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,1** mln. AQSh dollariga kamaydi va **797,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## BUXORO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2022	2023	2021	2022	2023	2022
Jami import	809,1	797,9	135,8	98,6	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	24,8	22,7	93,9	91,3	2,7	2,8
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,1	75,8	15,8	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	30,3	24,0	153,5	79,2	3,0	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'-lash moylari va shunga o'xshash materiallar	383,7	337,7	2,0 m.	88,0	42,8	42,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	1,0	104,4	69,2	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	82,5	84,6	154,7	102,6	13,8	10,6
Sanoat tovarlari	66,2	63,2	71,5	95,5	6,0	7,9
Mashinalar va transport asbob uskunalar	199,1	251,9	105,3	126,5	29,9	31,6
Turli xil tayyor buyumlar	20,3	12,8	75,2	63,0	1,7	1,6
Xizmatlar	0,4	-	-	-	-	-



	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2022	2023	2021	2022	2022	2023
Rossiya Federasiyasi	200,7	301	179,8	149,9	1	1
Xitoy	129,7	199,9	192,0	154,1	3	2
Turkmaniston	197,4	72,5	150,8	36,7	2	3
Turkiya	64,8	48,4	3,6 m.	74,7	5	4
Qozog'iston	78,1	44,7	105,2	57,2	4	5
Eron	33,8	32,2	127,1	95,3	6	6
Germaniya	22,8	21,4	43,9	93,9	7	7
Litva	10,0	13,2	3,4 m.	132,0	8	8
Belorus	6,4	8,9	164,7	139,1	10	9
Koreya Respublikasi	4,8	7,1	27,1	147,9	13	10
Polsha	5,7	5,9	3,3 m.	103,5	12	11
Niderlandiya	8,1	4,9	5,9 m.	60,5	9	12
Hindiston	3,3	4,7	103,8	142,4	17	13
Qirg'iziston	2,7	3,6	2,2 m.	133,3	21	14
Estoniya	0,2	3,2	100,0	16,0 m.	40	15
B.A.A.	0,5	2,9	4,5 m.	5,8 m.	29	16
Latviya	3,2	2,4	66,7	75,0	18	17
Tojikiston	4,4	2,2	95,3	50,0	14	18
Chexiya	0,9	2,0	125,0	2,2 m.	26	19
Yaponiya	0,4	1,6	18,0 m.	4,0 m.	31	20

## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023-yil yanvar-noyabr)



	Mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, foizda
<b>Viloyat</b>	<b>797,9</b>	<b>98,6</b>
<i>hududlar:</i>		
Olot	3,9	174,5
Buxoro	32,4	47,8
Vobkent	14,5	83,8
G'ijduvon	35,5	95,0
Kogon	68,6	92,9
Qorako'l	12,3	57,5
Qorovulbozor	315,0	93,3
Peshku	57,7	125,4
Romitan	15,3	74,6
Jondor	41,5	206,3
Shofirkon	6,9	46,0
Buxoro sh.	164,2	127,2
Kogon sh.	30,1	148,5
Aniqlanmagan tashkilotlar	0,0	-

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollarlari

**Qorovulbozor – 315,0**

**Buxoro sh. – 164,2**

**Kogon – 68,6**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollarlari

**Qorako'l – 12,3**

**Shofirkon – 6,9**

**Olot – 3,9**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **39,5** foiz ulush bilan **315,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Olot tumani **0,5 %** ulush bilan **3,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.**  
**Tel.: (65) 223-75-63**